

Qavmning javobi



15:00 / 16.01.2021 2794

Qavm yeb-ichish, befoyda o'yin-kulgu ichida edi. Dunyo hayotiga rozi bo'lib, xotirjam edilar. Hudning so'zlaridan yuraklari siqilib, bir-birlariga: «Hud nima deyapti? Hud o'zi nima xohlayapti? Biz uning so'zlarini tushunmayapmiz. U nodonmi yoki jinnimi?» deyishar edi. Hud yana bir bora da'vat qilganida, qavmidagi ulug'lar: «**Albatta, biz seni esinodonlikda ko'rib turibmiz va albatta biz seni yolg'onchilardan deb bilamiz**», deyishdi. «U: «**Ey qavmim, menda esi nodonlik yo'q. Lekin men olamlarning Robbidan Payg'ambarman**» (*A'rof surasi, 66-oyat*). «**Sizlarga Robbimning yuborganlarini yetkazaman va men sizlarga ishonchli nasihatgo'yman**», (*A'rof surasi, 62-oyat*) dedi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

